


2020-yil 1-mart holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot




Yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

2016-2020 yillar 1-mart holatiga ko'ra

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

27 538
ro'yxatdan o'tgan
korxonalar

26 772
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 27 538 tani tashkil etib, ulardan 26 772 tasi yoki 97,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 882 taga yoki 16,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-fevral oylarida 1 091 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,3% kamaygan.

Ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda

14 896



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

577



Oilaviy korxonona

164



Unitar korxonona

7 027



Xususiy korxonona

29




Aksiyadorlik jamiyati

4 845




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat



xususiy korxonona




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar, soni




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda




2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 22 419 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6 746 ta, oilaviy korxonalar – 557 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 14 572 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 26 ta, unitar korxonalar – 147 ta va boshqalar – 371 tani tashkil etgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar - fevral oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy sonidagi ulushi




2020-yil yanvar-fevral oylarida 1 091 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,3% kamaygan. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 779 ta, xususiy korxonalar – 235 ta, oilaviy korxonalar – 44 ta, muassasalar – 15 ta va boshqalar – 18 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jamiga nisbatan ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar



2020-yil 1-mart holatiga ko'ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 5 616 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,2 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 120,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 108,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 77,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 128,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-mart holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 007 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,4 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 120,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 55,1 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 115,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,2 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 133,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 37,7 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-mart holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 7 325 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,0 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 125,6 % ga (jami savdodagi ulushi 66,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 144,3 % ga (jami savdodagi ulushi 25,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 140,0 % ga (jami savdodagi ulushi 8,5 %) o'sishidir.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat


516

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

18

Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash

17



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



54

yashash bo'yicha xizmatlar




1 103

oziq ovqatlar mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 157 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,6 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, oziq ovqatlar va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 124,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 95,3 %), yashash bo'yicha xizmatlar– 128,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 4,7 %) o'sishidir.


Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-mart holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 391 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,7 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, televideniya dasturlari ishlab chiqish, ovoz yozish va musiqa asoslarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 100,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 5,4 %), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 130,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 22,0 %), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 106,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 12,8 %), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 80,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,0 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 101,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 21,2 %), aloqa xizmatlari – 124,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 36,6 %) o'sishidir.


Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 577 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 202 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 557 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 192 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, birlikda




Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 14 896 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 123 taga yoki 126,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 572 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 141 taga yoki 127,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Sanoat	Savdo	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Boshqa turlar
■ 2019 y.		6	1		1
■ 2020 y.	2	6	3	1	

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9 559 ta), Chust (2 170 ta), Namangan (1 878 ta), Uychi (1 678 ta) va To'raqo'rg'on (1 620 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiqo'rg'on (1 329 ta), Norin (1 222 ta) hamda Mingbuloq (1 163 ta) tumanlari korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		Xorijiy korxonona	Qo'shma korxonona
Namangan viloyati	232	79	153
Namangan shahri	77	27	50
Mingbuloq	4	2	2
Kosonsoy	22	5	17
Namangan	12		12
Norin	11	4	7
Pop	20	5	15
To'raqo'rg'on	18	8	10
Uychi	18	3	15
Uchqo'rg'on	5	4	1
Chortoq	17	6	11
Chust	17	9	8
Yangiqo'rg'on	11	6	5

Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>xorijiy korxonona</i>	<i>Qo'shma korxonona</i>
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>	50	12	38
<i>Qozog'iston Respublikasi</i>	11	3	8
<i>Qirg'iz Respublikasi</i>	9	1	8
<i>Tojikiston Respublikasi</i>	9	2	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda


■ Namangan sh. ■ Pop ■ Chortoq ■ Uchqo'rg'on ■ Norin ■ Chust
■ Mingbuloq ■ To'raqo'rg'on ■ Namangan ■ Uychi ■ Kosonsoy ■ Yangiqo'rg'on




Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil 1-mart mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 024 ta (jamidagi ulushi 41,2 %), Namangan 985 ta (6,8 %), Uychi 961 ta (6,6 %), Chortoq 905 ta (6,2 %), Pop 889 ta (6,1 %), Kosonsoy 810 ta (5,6 %), Chust 769 ta (5,3 %) va Yangiqo'rg'on tumani 739 ta (5,1 %) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, eng kamlari Uchqo'rg'on 671 ta (4,6 %), Norin 666 ta (4,6 %), To'raqo'rg'on 660 ta (4,5 %), Mingbuloq 493 ta (3,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida kichik korxonalar va mikrofirmalarning faollik holatlari bo'yicha soni, birlikda




2020-yil 1-mart holatiga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 22 306 tani tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122,4 % ga ko'pdir. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahri (8 298 ta), Chust(1 818 ta), Namangan (1 627 ta) va Uychi (1 393 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq (906 ta), Norin (956 ta), Yangiqo'rg'on (1 027 ta), Chortoq (1 158 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda



	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.03.2019-yil	01.03.2020-yil
Namangan viloyati	693 905	17 779	21 946
Namangan shahri	160 552	7 179	8 207
Mingbuloq	29 014	639	881
Kosonsoy	47 285	1 064	1 302
Namangan	44 952	1 299	1 624
Norin	42 750	677	922
Pop	55 246	853	1 225
To'raqo'rg'on	56 156	1 068	1 317
Uychi	55 132	1 093	1 379
Uchqo'rg'on	42 544	841	1 161
Chortoq	44 815	858	1 123
Chust	59 120	1 447	1 793
Yangiqo'rg'on	56 339	761	1 012

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil yanvar-fevral oylaridagi yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi To'raqo'rg'on (13 ta), Namangan shahar (11 ta), Uchqo'rg'on (7 ta), tumanglari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1 ta), Namangan (1 ta), Norin (1 ta) tumanglari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyat
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:71-230-84-96**